

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

ATOQLI OTLAR NAZARIYASI VA SEMANTIKASI

ТЕОРИЯ И СЕМАНТИКА ИМЁН СОБСТВЕННЫХ

THEORY AND SEMANTICS OF PROPER NAMES

Ismailov O'sarjon Usubjonovich

Ismailov O'sarjon Usubjonovich

– Namangan muhandislik-texnologiya institute Chet tillar kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada onomastikaning nazariy masalalaridan bo'lgan atoqli otlar nazariyasi va semantikasi, ularning tilda va nutqda tutgan o'rnini, shuningdek, bu borada taniqli tilshunos olimlarning qarashlari bayon etilgan.

Аннотация

В статье описываются теория и семантика имён собственных с точки зрения теоретических вопросов ономастики, их роль в языке и речи, а также взгляды известных ученых-лингвистов на этот счет.

Abstract

The article describes the theory and semantics of proper names from the point of view of theoretical issues of onomastics, their role in language and speech, as well as the views of famous linguists on this subject.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponim, atoqli ot, appelyativ, individuallik, umumiylik

Ключевые слова: ономастика, антропоним, имя собственное, апеллатив, индивидуальность, общность

Key words: onomastics, anthroponym, proper name, appellative, individuality, generality

KIRISH

Atoqli otlar (shaxsiy ismlar, nomlar) haqidagi fan **onomastika** deb ataladi. Bu atama yunoncha **onim(a) - ism** so'zi bilan bog'liq. O'tgan asrning 60-70-yillarida tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida vujudga kelgan onomastika, hozirgi kunga kelib mustaqil fanga aylandi va so'nggi yillarda butunlay yangi yo'nalishlar ochildi va rivojlantirildi. Onomastika muammolarini tadqiq qilishga o'zbek tilshunoslari ham o'tgan asrning 60-yillaridan alohida e'tibor bera boshladilar. E. Begmatov o'zbek antroponimiyasini, T. Nafasov Qashqadaryo viloyati toponimiyasini, S. Qorayev esa tarixiy nomlarni o'rganishga kirishdi.

Onomastika - yunon tilidan. **onomastike** - "nom berish san'ati". Atoqli otlarning eng keng doiradagi tushunchalar, obyektlar, hodisalarning individual nomlaridir. Insonlarni atab chaqiriladigan atoqli otlar (ya'ni, shaxsiy ismlar, otasining ismi, familiyasi, taxalluslari, laqablari) antroponimiya (**anthropos** - shaxs, **onima** - ism, unvon) tomonidan o'rganiladi.

Geografik obyektlar (mamlakatlar, shaharlar, viloyatlar, qishloqlar, tog'lar, pasttekisliklar, va boshqalar) **toponimika**. Suv havzalarining nomlari (dengizlar, daryolar, ko'llar, botqoqlar, va boshqalar) - **gidronimiya**. Kosmik jismlar (gallaktikalar, sayyoralar, yulduzlar, yulduz turkumlari, kometalar) - **kosmonimiya** tomonidan o'rganiladi. Shuningdek **zoonimika** hayvonlar nomlarini, **xrematonika** - moddiy madaniyat, fan, texnika, zargarlik buyumlari, musiqiy asboblarning nomlarini o'rganadi.

Atoqli otlar qadim zamonlardan beri olimlarning e'tiborini tortib kelgan. Atoqli otlar masalasi falsafa, mantiq, tilshunoslik, psixologiya va tarix kabi fanlar chorrahasida joylashgan. So'zlarning maxsus sinfi sifatida ular stoiklar tomonidan ajratib ko'rsatilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aynan XIX asrdan boshlab ushbu so'zlar guruhini ko'rib chiqishda ikkita qarama-qarshi tendensiya paydo bo'ldi, garchi bu muammo birinchi navbatda mantiqiy deb qabul qilingan bo'lsa ham.

Birinchi tendensiya zamonaviy ratsionalistik yo'nalishning asosini tashkil etdi va ingliz faylasufi Jon Styuart Mill (1806-1873) nomi bilan bog'liq bo'lib, u atoqli ot ma'noga ega emasligini ta'kidlaydi.

MATEMATIKA

Ratsionalistik yondashuvga ko'ra, ular obyektlarni tanib olishga yordam beradigan o'ziga xos belgilar yoki yorliqlardir va hech narsani anglatmaydi degan fikrni yoqlashadi.

A. V. Superanskaya, "atoqli otlarga nisbat berilgan barcha cheksiz ma'no boyligi, ularni so'z sifatida emas, balki ular ataydigan obyektlarni anglatadi, bu nomlarning entsiklopedik ma'lumotlarini tashkil etadi" [4]. Hozirgi kunda ratsionalistik yondashuvga muvofiq, atoqli otlar haqida olmoshlarga yaqin leksik semantika nuqtai nazaridan "bo'sh" belgilar sifatida gapirish odatiy holdir.

"Bir guruh tilshunoslar atoqli otlarni, jumladan, kishi ismlarining ma'nosini inkor etishgan. Ularning fikricha, ismlar kishilarning shunchaki atamasi, nomi, etiketkasidir. Bu qarash tarafdorlari atoqli otlar ma'nosining mavjud emasligini uchta dalil bilan isbotlashga intilishadi. Birinchidan, atoqli otlar mustaqil so'zlar emas. Chunki ularning o'ziga xos, mustaqil lisoniy materiali yo'q. Shu sababli atoqli otlar tildagi mavjud turdosh (oddiy) so'zlar, ya'ni apellyativ leksikadan yasaladi. Chunonchi, Temirboy ismi asosida temir so'zi, Xudoybergan ismi asosida Xudo(y) bergan (bola) so'z birikmasi yotadi. Ikkinchidan, atoqli otlar ma'nosi turdosh otlar kabi umumlashtirilgan tushunchani ifodalamaydi. Shu tufayli ot ma'nosi lug'aviy ma'no emas. Uchinchidan, atoqli ot tushuncha bilan bog'liq lug'aviy ma'no ifodalomagani uchun oddiy so'zlar kabi barchaga tushunarli bo'lavermaydi. Shu bois atoqli otlarni turdosh so'zlar kabi lug'atlarda izohlab bo'lmaydi. Darhaqiqat, atoqli otlar ikki tilli, izohli lug'atlarga bosh so'zlar sifatida kiritilmaydi va ma'nosi izohlanmaydi, balki oddiy so'zning ma'nosi talqin qilinganida uning atoqli ot vazifasida ham kelishi ta'kidlanadi, xolos. Chunonchi: «O'zbek tilining izohli lug'ati»da sulton so'zining leksema sifatidagi lug'aviy ma'nolari izohlangach, «Sulton - erkaklar va xotin-qizlar ismi» izohi keltirilgan (II jild, 1981, 84-bet). Ism sifatida keladigan boshqa so'zlarga ham shu tarzda izoh berilgan. Chunki bunday lug'atlarda ismlar ma'lum tushuncha bilan bog'liq ma'noga ega emas deb hisoblangani uchun ularning ma'nosi oddiy so'zlarniki kabi izohlanmaydi. Ba'zi olimlar tilda ma'nosiz so'z bo'lishi mumkin emas degan fikrni ilgari surishadi. Ularning fikricha, ismlar ma'nosi ism uchun asos so'z (apellyativ)ning, ikkinchidan esa, ismning yuzaga kelishi va qo'yilishi uchun asos bo'lgan sabab, holatning mohiyatidan iborat. Bu qarashga ko'ra, masalan, To'xtasin ismi to'xtasin fe'li anglatadigan ma'no va ota-onasining o'z farzandi yashab ketishini niyat qilganligini ifoda etadigan ma'nolardan iborat. Atoqli otlar ma'nosini yuqoridagi kabi tushunish va talqin qilish nomshunoslikda keng tarqalgan bo'lib, ismlarning maxsus izohli lug'atlarida kishi ismlari ma'nosi mana shu nuqtayi nazardan yoritiladi. Demak, ismlar ma'nosi deganda etnografik ma'no tushuniladi..."[1]

Qarama-qarshi tendensiya ingliz mantiqchisi X. Jozef tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u atoqli ot "turdosh otdan ham ko'ra ko'proq ma'noga ega" deb hisoblagan. [5]. V. A. Nikonovning ta'kidlashicha, "nomlar tilda maxsus kichik tizimni tashkil etadi, unda umumiy lingvistik qonuniyatlar o'ziga xos tarzda sinadi" [3].

M. Baxtinning fikricha, "til tizimida individuallashtirilgan yagona obyektning "nominativ belgisi" sifatida harakat qilgan holda, atoqli ot bir vaqtning o'zida katta konnotativ salohiyatga ega bo'lib, turli semantik va emotsional assotsiatsiyalarning akkumulyatori, "qisqartmasi" hisoblanadi. Boshqa hech qanday til birligi atoqli ot kabi, vaqtlar davomida ma'lumotni o'zida saqlashga va uzatishga qodir emas, chunki ismlar madaniyatning eng barqaror haqiqati va uning asoslarining eng muhimidir."

Atoqli ot semantikasining bu qadar murakkabligi muammoga turli xil yondashuvlarni va atoqli ot ma'nosining o'zaro bir-birini inkor etuvchi tushunchalarini paydo bo'lishiga olib keldi.

Ba'zi mualliflar atoqli otni hech qanday ma'no anglatmasligini ta'kidlaydilar, boshqalari ularning ma'no jihatidan turdosh otlarga qaraganda pastroq yoki boshqa ma'lumot tekisligida yotadi deb hisoblaydilar, uchinchilari esa ularga turdosh otlarga qaraganda yanada mazmunliroq ma'no berishadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Muammoni tushunishga harakat qilib ko'ramiz.

Birinchidan, barcha atoqli otlar obyektivlik ma'nosiga ega, ya'ni ularning mazmuni (ma'nosi) ning bir qismi, ma'lum bir obyekt (biz obyekt sifatida tasavvur qiladigan predmet) mavjudligi haqida xabar beradi.

Ikkinchidan, aksariyat atoqli otlar qaysidir predmetlar sinfini anglatadi, ular orasidan bitta predmetni alohida ajratib ko'rsatadi. Til tizimida mantiqiy nuqtai nazardan individuallashtiruvchi nominatsiya faqatgina umumlashtirish asosida ma'lum tarzda sinflashgan predmetlar orasida o'rinlidir. Masalan: *Otabek - "odam", "erkak", "o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoa a'zosi"*

Uchinchidan, individual predmetni bildiruvchi atoqli otlar o'z ma'nosida ma'lum bir kelishuvni, ushbu obyektни ma'lum bir tarzda nomlash kelishuvini belgilaydi.

To'rtinchidan, atoqli ot ushbu predmet va uning xususiyatlari haqidagi ba'zi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumot yetarlicha yoki aksincha bo'lishi mumkin va u turli xil muloqot sohalarida har xil darajada ma'lum bo'lishi mumkin. Masalan, Shekspirni oladigan bo'lsak, u nafaqat inglizcha so'zlashadigan jamoa, balkim undan tashqarida ham yetarlicha ma'lum.

Shunday qilib, atoqli ot (ism)ning ma'nosida kamida to'rtta komponentni ajratish mumkin:

a) *ekzistensial*, yoki *tanishtiruvchi* — ko'rsatilayotgan predmetning mavjudligi va sub'ektivligi. Ya'ni bu ma'no komponenti o'zida "Shunday predmet bor" degan xabarni saqlaydi. Bu komponent turdosh hamda atoqli otlar predmeti so'z belgilari uchun umumiydir.

b) *tasniflash* — predmetning ma'lum sinfga mansubligi. Bunday sinfni ismning denotati deb ataymiz. Masalan, antroponimlarning denotatlari odamlardir (shuningdek ko'plab antroponimlarning denotatlari, erkaklar va ayollar sinfidir); zoonimlarning denotatlari-hayvonlar; toponimlarning denotatlari qit'alar, mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, aholi punktlari, ko'chalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu ma'no komponenti o'zida "*Bu predmet odam (shahar)*" degan xabarni saqlaydi.

v) *individuallashtirish* — bu denotat ichidagi obyektlardan birini nomlash uchun berilgan ism yoki nomning maxsus maqsadi. (bunday alohida predmet nomi referent deb ataladi.) (a), (b) va (v) komponentlar birgalikda "*Men sizdan so'ramoqchi bo'lgan odamning ismi Djon*", "*Biz qo'shimcha ma'lumotlar olmoqchi bo'lgan orolning nomi Grenlandiya*" kabi xabarni o'zida saqlaydi.

d) *tavsiflovchi* - suhbatdoshlar, kim yoki nima haqida gap ketayotganligini tushunishlari uchun yetarli bo'lgan, referentga tegishli xususiyatlar to'plami. Ushbu ma'no komponenti o'zida "*Grenlandiya- dunyodagi eng katta orol. U Shimoliy Amerikada joylashgan bo'lib, maydoni 2.1mln km² ni tashkil etadi.*" kabi xabarni saqlashi mumkin.

A.V. Superanskaya o'zining "Obshaya teoriya imeni sobstvennogo" nomli kitobida ismdagi ma'lumotni uchta tipga ajratadi: nutqdagi ma'lumot, tildagi ma'lumot va entsiklopedik ma'lumot. Ular bir-biridan mustaqil ravishda mavjud.

Nutq ma'lumoti nomni obyekt bilan bog'laydi va so'zlovchining obyektga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Bu har doim va hamma uchun mavjud bo'lgan ismning eng ommaviy va yuzaki ma'lumotidir. Aynan ommaviy xarakterga ega bo'lgani uchun u unchalik aniq emas, uning hajmi bir so'zlovchidan ikkinchisiga, ularning xarakter xususiyatlariga va nutq holatlarining ekstralingvistik sharoitlariga qarab o'zgarishi mumkin. Ismning nutq ma'lumotlari ism bilan dastlabki tanishuv allaqachon sodir bo'lganligini ko'rsatadi; Bu esa ismning nutqqa kiritilishining ajralmas shartidir.

Entsiklopedik ma'lumotlar bu - ushbu ism yoki nomdan foydalanuvchi til hamjamiyatining har bir a'zosi uchun mavjud bo'lgan obyekt (ism, nom) haqidagi ma'lumotlar to'plami. Nomga ega bo'lmay turib, obyekt, entsiklopedik ma'lumot olmaydi, chunki u obyekt bilan nom orqali bog'lanadi. Ismning entsiklopedik ma'lumotlari asosan sub'ektiv va individualdir, chunki u idrokning individualligi tufayli obyektiv bo'la olmaydi. Dunyo bo'ylab mashhur bo'lgan nomlar va obyektlar uchun entsiklopedik ma'lumotlar mahalliy cheklangan mashhurlikka ega bo'lgan nomlarga (va obyektarga) qaraganda ancha bir hil va hajmi jihatidan kattaroq bo'ladi. Ammo bugun ham Napoleon yoki Servantes kimligini bilmagan odamni uchratish mumkin.

Biz nomning entsiklopedik ma'lumotlariga nafaqat so'zlovchiga obyekt bilan tanishish natijasida paydo bo'ladigan ma'lumotlar majmuasini, balki u, obyektни hech qachon ko'rmasdan turib olishi mumkin bo'lgan obyekt haqidagi dastlabki ma'lumotlar miqdorini ham havola qilamiz.

Ismning til ma'lumotlari (birlamchi va minimal bo'lgan, bu-ism yoki nom degan ma'lumotdan tashqari) uning ma'lumotlarining eng doimiy va o'zgarimas qismidir. Bu ismning tabiati va komponentlari tarkibida yotadi. Ammo uni olish uchun ismni batafsil tahlil qilish kerak, bu o'z-o'zidan juda qiyin.[6]

Muloqotning ma'lum bir doirasi ishtirokchilari o'zlarining nutqlariga ma'lum bir predmet bo'yicha ism orti ma'lumot va bilimlarni qo'yadilar va agar bu muloqot doirasi butun til hamjamiyatiga taalluqli bo'lsa, u holda tizim sifatida tildagi atoqli ot (ism) ma'nosining individuallashtiruvchi komponenti shakllanadi. Misol keltiradigan bo'lsak, suhbatdoshingizga "Abdullani taniysizmi?" deb savol berib ko'ring, siz savolingizga "Qaysi Abdullani?" degan savol bilan javob olasiz. Endi savolni

MATEMATIKA

biroz o'zgartirib "Siz Abdulla Qodiriy taniysizmi?" deb savol berib ko'ramiz va "Ha, albatta" javobini olamiz. Chunki "Abdulla Qodiriy" ismi ortida uni individuallashtiruvchi ism orti ma'lumot bor.

XULOSA

Turdosh otlarda individuallik ma'nosi bo'lmaganidek, atoqli otlarda ham umumiylik ma'nosi yo'q. Turdosh ot atoqli otga aylanib, umumlashtirish qobiliyatini yo'qotadi va individuallasha boshlaydi. Atoqli otlar (ismlar) ularning ohangi (jarangi, tovushi) bilan belgilanadi, ularni hosil qilgan apellyativ tushunchasini tark etadi, ularning etimologik ma'nosi nomlash paytida yoki unga e'tibor qaratilgan stilistik bezakli kontekstda muhim bo'lishi mumkin.

"Atoqli ot ma'nosi haqidagi masala nafaqat nazariy qiziqish uyg'otadi. Bu madaniyatlararo va tillararo aloqalarda juda dolzarb bo'lib qolmoqda. Atoqli otlar til to'siqlarini osongina kesib o'tgandek tuyuladi, chunki ular "ona tili" doirasidan tashqarida ishlatilganda ham o'zlarining tashqi shakllarini saqlab qolishga moyildirlar." [2]

Bizning ismlarimiz shaxsiyatimizning nihoyatda muhim qismidir. Ular chuqur shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy-madaniy va tarixiy ahamiyatga ega. Shuningdek, ular bizning kimligimiz, qaysi jamoalarga mansubligimiz va dunyodagi o'rnimiz haqida tushuncha beradi.

ADABIYOTLAR

1. E. A. Begmatov. O'zbek ismlari izohi . - Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. - 608 b. (E. A. Begmatov. Explanation of Uzbek names. - Tashkent: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2016. - 608 p.)
2. D.I. Yermolovich. Imena sobstvennye na styke yazykov i kultur. M.:Valent. 2001., S. 13. (D.I. Ermolovich. Proper names at the intersection of languages and cultures. M.: Valent. 2001., p. 13)
3. Nikonov V.A. Imya i obshestvo. – M.: Nauka, 1974. – 276 s. (Nikonov V.A. name and society. – M.: Nauka, 1974. – 276 p.)
4. Superanskaya A.V. Yazykovye i vneyazykovye assotsiatsii sobstvennyh imyon // Antroponimika: Sb. nauch. tr. – M., 1970. S. 7-17.(Superanskaya A.V. Linguistic and extralinguistic associations of proper names // Anthroponymy: Sat. scientific tr. - M., 1970. p. 7-17.)
5. Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. – M.: Nauka, 1973.,S.366. (Superanskaya A.V. General theory of proper name. - M.: Nauka, 1973.,p.366)
6. Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. – M.: Nauka, 1973.,S. 259-260. (Superanskaya A.V. General theory of proper name. - M.: Nauka, 1973., pp. 259-260)